XALQ DEPUTATLARI GULISTON TUMANI KENGASHI

Q A R O R I

Guliston tumani 120300, Turkiston ko‘chasi, 13-uy. Tel: (67) 796-24-57

2022 - yil 23 - aprel VI-49-63-9-124-K/22 Guliston tumani hokimligi

Mahallani bo‘lish evaziga yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomini tasdiqlash haqidagi 48-sonli qarori, Geografik ob’yektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi ekspert komissiyasining 2021-yil 15-apreldagi 01-14-222-sonli xulosasi hamda tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2021-yil 27-oktabrdagi 01/07-211-sonli xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi:

QAROR QILADI:

1. Geografik ob’yektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi ekspert komissiyasining 2021-yil 15-apreldagi 01-14-222-sonli xulosasi hamda tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limining 2021-yil 27-oktabrdagi “Guliston tumanidagi Chortoq qishloq fuqarolar yig‘inini ikkiga bo‘lish hisobiga yangi mahalla fuqarolar yig‘ini tashkil etish to‘g‘risida”gi 01/07-211-sonli xati ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2.Tumandagi bo‘linadigan va yangi tuziladigan fuqarolar yig‘ini nomi 1-ilovaga;

Tumandagi bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolar yig‘inining aholi soni 2-ilovaga;

Tumandagi bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolar yig‘inining yer maydoni va chegaralari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (M.Egamberdiyev), Guliston tuman Yer resurslari va davlat kadastri agentligi (F.Kulchiyev), tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i (X.Yuldashev) va boshqa tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda, fuqarolar yig‘inini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish xujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsinlar.

4. Tuman moliya bo‘limi (B.Usmanov):

yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash uchun zarur mablag‘larni mahalliy byudjetdan belgilangan tartibda ajratish choralari ko‘rilsin.

5. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Sh.Ibragimov) mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hududa aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirsin.

6. Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i Sh.Xushmuratov, Tuman qurilish bo‘limi boshlig‘i X.Yuldashevga, tumanda yangi tuzilgan fuqarolar yig‘iniga yangi nom yozilgan ko‘rsatgich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida o‘rnatish topshirilsin.

7. Chortoq QFYga ikkiga bo‘linayotganligi munosabati bilan Chortoq MFY maqomi berilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingandan so‘ng kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning ijrosi doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **R.Sheranov**

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2022 yil 23 apreldagi
VI-49-63-9-124-K/22-son qaroriga
1-ilova

Bo‘linayotgan Chortoq QFYning taklif etiladigan yangi nomi to‘g‘risida

№	Bo‘linadigan QFY nomi	Bo‘lingan MFY nomi	Yangi tashkil etilgan MFY nomi
1.	Chortoq QFY	Chortoq MFY	Inoqlik mahalla fuqarolar yig‘ini

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2022 yil 23 apreldagi
VI-49-63-9-124-K/22-son qaroriga
2-ilova

Bo‘linayotgan va yangi tashkil etilayotgan fuqarolar yig‘inining aholi soni to‘g‘risida

№	Bo‘linadigan Chortoq QFY jami aholi soni	Bo‘lingan Chortoq MFYga qolgan aholi soni	Yangi tashkil topgan Inoqlik MFY aholisi soni
1.	4958	2608	2350

Xalq deputatlari Guliston tuman
Kengashining
2022 yil 23 apreldagi
VI-49-63-9-124-K/22-son qaroriga
3-ilova

Bo‘linayotgan Chortoq QFYning va tashkil etiladigan yangi MFYyer maydoni va chegaralari to‘g‘risida

№	Bo‘linadigan QFY jami yer maydoni	Bo‘lingan MFYga qolgan yer maydoni	Yangi tashkil etilgan MFY yer maydoni
1.	31934	16629	15305
№	Bo‘linadigan Chortoq qishloq fuqarolar yig‘inining chegaralari	Bo‘linadigan Chortoq mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Yangi tashkil etilgan Inoqlik mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari
1.	A.Yassaviy MFY, Soyibobod QFY, Ishonch MFY, A.Navoiy MFY, Beshbuloq QFY, Sayxunobod tumani	Soyibobod QFY, Ishonch MFY, Beshbuloq QFY, Sayxunobod tumani	A.Yassaviy MFY, A.Navoiy MFY, Beshbuloq QFY,